

Date: 25<sup>th</sup>January-2025

## TO‘QILGAN VA TRIKOTAJ KIYIMLAR - BU ZAMON TALABI

**Sultanova Aziza Akmalovna**

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan  
maxsus texnikum ishlab chiqarish ta'limi ustasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda to‘qilgan kiyimlarni kiyish va ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqa, bu esa trikotaj kiyimlarning yangi moda va dizaynnini yaratishga turtki bo‘lmoqda. Ushbu maqolada to‘qilgan trikotaj kiyimlarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqarilishi va urfga aylanishi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** kiyim, to‘qish, mato, moda, trikotaj, ip, ipak, ishlab chiqarish, modellashtirish, zamonaviy, buyum, mahsulot.

Bugungi kunda respublikamizda to‘qimachilik va yengil sanoat rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratib berishga qodir tabiiy xomashyo resurslari mavjud. Ushbu resurslardan foydalanib ip, ipak va trikotaj matolardan yuqori sifatli va raqobatbardosh to‘quv va trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish davlatimiz iqtisodiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biridir.

To‘quvchilikning rivojlanishini o‘rta asrlarning ikkinchi yarmidan kuzatish mumkin. XV—XVII asrlarda ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi boshlanadi. XV asrning oxiridan boshlab to‘quv buyumlarining ilk namunalari paypoqlar va qo‘lqoplar to‘qila boshladi. 1798-yil Fransiyada birinchi aylana trikotaj mashinasini ixtiro etilgan. Shu davrdan boshlab qo‘lda to‘qilgan buyumlar bilan bir qatorda to‘quv mashinasida to‘qilgan buyumlar ham qo‘llanib kelinmoqda. Qo‘lda turli sviterlar, yoping‘ichlar, bolalar jemferlari va hokazolar to‘qilgan. Kiyimdagagi nafislikka naqshlar xilma-xilligi, tola ranglari va ilmoqlar to‘qimi bilan erishilgan. Keyinchalik trikotaj mashinalar takomillashishi natijasida metrajli trikotaj matolar va aylana matolar to‘qilgan.

Dastlab trikotaj buyumlari assortimenti paypoqlar, qo‘lqoplar, bosh kiyimlari bilan cheklangan, keyinchalik ich kiyimlari va sport kiyimlari ishlab chiqarish boshlangan. Keyingi bosqichda bu assortimentga ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlari, jemferlari, qo‘shilgan.



Date: 25<sup>th</sup>January-2025

Trikotaj ishlab chiqarishning asosiy xususiyatlari texnik taraqqiyotda to‘quv jihozlarining yuqori samaradorligi va turli tolalarga ishlov berishning keng imkoniyatlaridan iborat.

Trikotaj sanoati xodimlarining asosiy vazifalari buyumlar assortimentini kengaytirish va kiyim sifatini yaxshilashdan iborat. Bu maqsadga yangi turdag'i trikotaj tolalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini takomillashtirish, zamonaviy estetik talablarga javob beradigan trikotaj buyumlarini loyihalashni va ko‘plab ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bilan erishish mumkin.

To‘qishning yangi usullarini yaratish yoki eski usullarini takomillashtirish yo‘li bilan erishish mumkin, qolaversa, uning rasmi va kompozitsiyasini yangi badiiy bezatish elementlari hisobidan o‘zgartirish mumkin. Ikki holatda ham barcha texnik va amaliy san'at usullarini qo‘llasa bo‘ladi. Ularga yangi jihozlar, xomashyo, to‘qimalarni qo‘llash. nusxa ko‘chirish , bosib naqsh solish va matolarga gul bosish, yangi fakturalarni yaratish, bir xil rangli va rang-barang rasmlarning yangi kompozitsiyasini qo‘llash kiradi.

Aniq bir maqsadda u yoki bu to‘qilishni tanlashda to‘qima xususiyatlarini va xomashyoni to‘g‘ri tanlash muhim vazifa hisoblanadi.

To‘quvchilik sohasida ham tikuvchilik sohasiga o‘xshab mahsulot ishlab chiqarishning shaxsiy, ommaviy, seriyali usullari mavjud. Mazkur ishlab chiqarish usullarining har qaysisi alohida xususiyatlarga ega. Xususiy trikotaj ishlab chiqarish yakka buyumlarni atelye, ustaxona yoki uy sharoitida tayyorlash shaklida bo‘ladi.

Buyumni xususiy usul bilan tayyorlaganda, buyurtma egasidan o‘lchovlarini olib, ushbu o‘lchovlar asosida buyumni to‘qiy boshlanadi. Kiyib ko‘rish paytida kiyimning kamchiliklari topiladi va bartaraf etiladi. Mehnat taqsimoti kichik bo‘lib ishning alohida usullari ko‘rib chiqiladi.

XXI asr tikuv-trikotaj va to‘quv buyumlar davriga aylandi. Erkaklar, ayollar va bolalar bosh kiyimidan tortib oyoq kiyimigacha, har qanday yoshdagi insonlar ehtiyojidagi (yengil kiyimlar, ust kiyimlar, bosh kiyimlar, qo‘lqop-u paypoqlar ) uy garderobidan katta joy egallaydi.

Hozirgi kunda imkoniyati cheklangan insonlar ham to‘quvchilik kasbiga qiziqishi ortib bormoqda va o‘z hissalarini qo‘sib kelmoqda. Respublika imkoniyati cheklangan shahslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumda ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi o‘quvchilar to‘quvchilik kasbini qiziqish bilan o‘rganib o‘z-o‘zini band qilib buyurtma asosida to‘qib o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Qo‘l mehnati orqali to‘quvchilik sohasini yanayam rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqdalar va hayotda o‘z o‘rinlarini topishda katta ahamiyatga aga.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Pulatova S.U. Trikotaj kiyimlarini konstruksiyalash va modellashtirish. T., Turon- Iqbol, 2006 y.
2. Н.А.Архангел'ский и др. Технология трикотажно-швейного производства, Гостехиздат, 1963 г.

Date: 25<sup>th</sup>January-2025

3. X.X.Kamilova N. K. Hamrayeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". Toshkent "Cho'lpon" 2011.
4. M. Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi" Toshkent. "O'qituvchi" 1989
5. Ramazanova M.K., Tashpulatov S.Sh. Kiyimni modellashtirish va badiiy bezash. Toshkent, 2010.
6. M. S. Goipova va boshqalar. "Tikuvchilik texnologiyasi asoslari